


**D.E. NORBEKOV, A.N. MAXMUDOV,
D.A. MUHAMMEDOVA**

BUXGALTERIYA HISOBI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTI TUTI

**D.E. NORBEKOV, A.N. MAXMUDOV,
D.A. MUHAMMEDOVA**

BUXGALTERIYA HISOBI

Kollej o'quvchilari uchun o'quv qollanma

Toshkent
“IQTISOD-MOLIYA”
2018

UO'K: 657(075.32)
KBK:65.052

KIRISH

Taqrizchilar: *i.f.n.* O.M.Quljonov;
i.f.n. O. Masharipov

N 79 **Buxgalteriya hisobi:** O'quv qo'llanma / D.E. Norbekov,
A.N. Maxmudov, D.A. Muhammedova; – T.: "Iqtisod-Moliya",
2018. – 248 b.

Ushbu o'quv qo'llanma Davlat ta'lim standartlari talabları, buxgalteriya hisobi o'quv dasturiga asosan tuzilgan bo'lib, "Buxgalteriya hisobi va audit" ta'lim yo'naliishi bo'yicha ta'lim olayotgan o'quvchilar uchun mo'ljallangan.

Qo'llanma "Buxgalteriya hisobi" fani bo'yicha olgan nazariy bilimlarini tushunish imkoniyatini beradi va fanning barcha mavzularini qamrab olgan. O'tilgan mavzularni o'zlashtirish maqsadida har bir mavzu bo'yicha savollar keltirilgan.

UO'K: 657(075.32)

KBK: 65.052ya721

© D.E. Norbekov, A.N. Maxmudov,
D.A. Muhammedova, 2018
© "IQTISOD-MOLIYA", 2018

ISBN 978-9943-13-718-9

Buxgalteriya hisobi korxona faoliyatini boshqarishda asosiy o'rirlardan birini egallaydi. Buxgalteriya hisobining ma'lumotlaridan foydalanish ularga asoslanib korxonalarda boshqaruva tizimini tashkil etishda sezilarli darajada samaradorligini oshiruvchi omil bo'lib hisoblanadi. Mazkur o'quv qo'llanmaning yakuniy maqsadi ham, o'quvchilarda buxgalteriya hisobining tashkil etish va yuritish uslubiyoti bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirishda yordam berish. Olingan bilimlarini yurtimizning kichik biznes subyektlari korxonalarda qo'llash imkonyatini yaratadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning mukammal shakllanib borishi alohida yo'nalish va ko'rinishga ega bo'lgan hisob tizimini yuzaga chiqardi. Bu hisob tizimida olingan axborot sifatli va samarali, barcha foydalanuvchilar talabini qondiradigan bo'lishi lozim. Bu shuni anglatadiki, buxgalteriya axboroti ko'rsatkichlarning ma'lumotlari turli darajalaridagi foydalanuvchilarining iqtisodiy qarorlarni qabul qilishdagi ehtiyojlarini qondirishi lozim. Taqdim etiladigan axborot zarur, muhim va maqsadga muvofiq bo'lishi, ortiqcha ko'rsatkichlarni istisno etishi kerak. Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda olib borilayotgan byudjet-moliya siyosatini yanada takomillashtirish, moliyaviy ma'lumot turlari va ularning amal qilish mexanizmini soddalashtirish muhim masalalardan hisoblanadi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha **Harakatlar Strategiyasining**, bandida yoritilishicha "byudjet-soliq tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish. moliya ma'muriyatiligidini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarни kengaytirish"¹ asosiy vazifa qilib

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risi"dagи PF-4947-son Farmoni. (3 bo'lim bandlaridan) O'zbekiston Respublikasi qonun buyutlari to'plamu, 2017 yil 6-son.

qo'yilmoqda. Buxgalteriya hisobi boshqaruv qarorlarini qabul qilishni ta'minlashda asosiy mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi va u bilan yuksak darajadagi mutaxassislar shug'ullanadilar.

Ushbu o'quv qo'llanma hukumatimiz tomonidan belgilangan hamda respublikamiz hisob tizimidagi o'zgarish va talablar asosida yaratilgan bo'lib, u hukumatimiz tomonidan buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish borasida qabul qilingan me'yoriy va huquqiy hujjatlar, iqtisodchi olimlarimiz tomonidan bu sohani rivojlantirish borasida olib borilgan ko'plab nazariy, amaliy, ilmiy izlanishlar, risola va zamonaviy adabiyotlar asosida ishlab chiqilmoqda.

Ishning taqdim etilgan strukturasi "Buxgalteriya hisobi" kursini nazariy materiallarini mavzular bo'yicha o'zaro mantiqiy davomiyligida tushunish imkoniyatini beradi. Buxgalteriya hisobi bo'yicha o'quv qollanma ushbu kursning asosiy mavzularini qamrab olgan. O'tilgan materiallarni o'zlashtirish maqsadida har bir mavzu bo'yicha savollar keltirilgan. Mavzular bo'yicha savollarning mavjudligi o'quvchilar bilimini mustaqil nazorat qilish imkoniyatini ta'minlaydi.

1-MAVZU. BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH

REJA

1. *Buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari va ahamiyati.*
2. *Buxgalteriya hisobiga rahbarlik qilish.*
3. *Buxgalteriyada ishni tashkil qilish.*
4. *Korxona hisob siyosati.*

1. Buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari va ahamiyati

Buxgalteriya hisobining maqsadi foydalanuvchilarni o'z vaqtida to'liq hamda aniq moliyaviy va boshqa buxgalteriya axboroti bilan ta'minlashdir. Iqtisodiyot turli sohalarga qarashli korxona, muassasa, uyushma, birlashma, konsern va boshqalar faoliyati ustidan umumiy davlat boshqaruvini o'rnatish, ularidan olinadigan ma'lumotlarga asoslanadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati haqidagi ma'lumotlar esa, ular buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga asoslanadi. Demak, xo'jalik yurituvchi subyektlar qaysi mulkchilik shakliga asoslanganidan qat'iy nazar, tegishli organlar tomonidan ishlab chiqilgan qonun, ko'rsatma nizomlarga va qo'llanmalarga rioya etgan holda hisob yuritishlari zarur.

Buxgalteriya hisobini tashkil etish deganda korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risida ishonchli va o'z vaqtida axborotlar olish hamda ishlab chiqarish resurslari va tayyor mahsulotlardan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida hisob jarayonining shart-sharoitlar tizimi va ularni elementlarining tuzilishi tushuniladi.

Buxgalteriya hisobini tashkil etish tizimining asosiy elementlari dastlabki hisob va hujjatlar aylanishi, inventarizatsiya, hisob-kitob ishlarning tashkiliy shakllari, hisobotlarning hajmi va mazmuni hamda hisob siyosatidan iborat bo'lishi lozim.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-mavzu Buxgalteriya hisobini tashkil etish.....	5
2-mavzu Pul mablag'ları va hisob-kitoblar hisobi.....	26
3-mavzu Materiallar hisobi.....	65
4-mavzu Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi.....	87
5-mavzu Mehnat va ish haqi hisobi.....	127
6-mavzu Mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxini kalkulyatsiyasi.....	143
7-mavzu Qishloq xo'jalik korxonalarida buxgalteriya hisobini xususiyatlari.....	169
8-mavzu Kichik korxonalar va mikrofirmalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish.....	184
9-mavzu Mahsulot, ish va xizmatlarni sotish hisobi.....	189
10-mavzu Fondlar va moliyaviy natijalar hisobi.....	212
11-mavzu Buxgalteriya hisoboti.....	230
Foydalaniman adabiyotlar	243

D. NORBEKOV, A. MAHMUDOV, D. MUHAMMEDOVA

BUXGALTERIYA HISOBI

O'quv qollanma

Muharrir Sh. Bazarova

Badiiy muharrir K. Boyxo'jayev

Kompyuterda sahifalovchi Z. Ulug'bekova

Nashr lits. AI' 305. Bosishga ruxsat etildi 24.04.2018.

Qog'oz bichimi 60x84 1/16. Shartli bosma tabog'i 14,3.

Hisob-nashr tabog'i 14,8. Adadi 100.

7-buyurtma.